



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
O‘ZBEK TILINI RIVOJLANTIRISH JAMG‘ARMASI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI DAVLAT
TILIDA ISH YURITISH ASOSLARINI O‘QITISH VA MALAKA OSHIRISH
MARKAZI**

“DAVLAT TILI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

**“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2025**

UO‘K: 494.375

KBK: 81.633.1

D 26

Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar [Matn]: to‘plam / Sh.Sirojiddinov.
– Toshkent: Bookmany print, 2025. – 450 b.

Mazkur to‘plam “Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar” mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumaniga tilshunos olimlar, vazirlik, idoralar, mahalliy ijro etuvchi organlarning davlat tili bo‘yicha maslahatchilari hamda tadqiqotchilar tomonidan yuborilgan materiallardan tashkil topgan. Undagi maqolalarda davlat tilining dolzarb muammolari, ularni hal qilish bo‘yicha takliflar, yechimlar berilgan. To‘plam tilshunoslar, professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar, magistrlar va talabalar uchun mo‘ljallangan.

(Maqolalarning ilmiy saviyasiga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar).

Mas’ul muharrir:

Sh.Sirojiddinov, filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

I.Azimov, filologiya fanlari doktori, professor

A.Eminov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

B.Jo‘rayeva, filologiya fanlari doktori, professor

M.Abdiyev, filologiya fanlari doktori, professor

F.Bobojonov, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Saparniyozova, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Hakimova, filologiya fanlari doktori, professor

M.Umirzoqova, filologiya fanlari doktori, dotsent

H.Yodgorov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

H.Suyunov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

N.Quldashev, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi Ilmiy-metodik kengashida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-06-774-7

© “Bookmany print” nashriyoti, 2025.

EKVONIMIYA VA UNGA YONDOSH HODISALAR XUSUSIDA

Ixtiyor ERMATOV*

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'zbek tilshunosligi muammolariga, xususan, til sathlari va ularning birliklari tizimiga xos ekvonim va ekvonimik, giperonim va giperonimik, giponim va giponimik munosabatlar, ularning o'zbek tilshunosligi leksikologiyasi tizimiga xos amaliga alohida e'tibor qaratilgan. Ekvonim va ekvonimiya atamaları – tilshunoslik terminlari tizimida nisbatan yangi lug'aviy birlik. Shu bois bu atama tilshunoslikka oid amaldagi ilmiy va leksikografik manbalarda qayd etilmagan. Ekvonim va ekvonimiya atamaları bildirgan lisoniy tushuncha, garchand polisemiya, omonimiya, sinonimiya, antonimiya, giponimiya atamaları nomlagan lisoniy tushunchalar bilan “yondosh” bo'lsa-da, u hozircha tilshunoslikda, ayniqsa, o'zbek tilshunosligida, rasman keng ommalashmagan. Rus va o'zbek tilshunosligida zid ma'noli so'zlar tadqiqi bir qancha ilmiy ishlarining obyekti bo'lgan. Xususan, rus tilshunosligida L.A.Novikov, M.R.Lvov, L.A.Varaksin asarlarida, o'zbek tilshunosligida S.Usmonov, R.Shukurov, Sh.Rahmatullayev, A.Hojiyev, H.Ne'matov, R.Rasulov, N.Mamatov, D.Abdullayeva, I.Mamasoliyev, Y.Odilov, F.Jumayeva, I.Ermatovlarning ishlarida maxsus tadqiq etilgan. O'zbek tilshunosligida antonimiya hodisasi haqidagi ilk ilmiy qarashlar S.Mutallibov, S.Usmonovlarning maqolalarida o'z aksini topgan. Keyinchalik R.Shukurov va B.Isabekovlar tomonidan ushbu masala nomzodlik dissertatsiyasi darajasida tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: Leksika, leksema, antonym, yarim antonimlar, giperonim, giponim, ekvonim, ekvonimiya va b.

On Economy and Related Events

Abstract

This article focuses on the problems of Uzbek linguistics, in particular, on the eqonym and eqonymic, hyperonym and hyperonymic, hyponymic and hyponymic relations inherent in the system of language levels and their units, and their application in the system of lexicology of Uzbek linguistics. The terms eqonym and eqonymy are relatively new lexical units in the system of linguistic terms. Therefore, this term is not recorded in current scientific and lexicographic sources related to linguistics. The linguistic concept expressed by the terms eqonym and eqonymy, although it is “similar” to the linguistic concepts named by the terms polysemy, homonymy, synonymy, antonymy, hyponymy, has not yet been officially widely popularized in linguistics, especially in Uzbek linguistics. The study of words with

contradictory meanings in Russian and Uzbek linguistics has been the object of a number of scientific works. In particular, in Russian linguistics, it was specifically studied in the works of L.A. Novikov, M.R. Lvov, L.A. Varaksin, and in Uzbek linguistics, in the works of S. Usmonov, R. Shukurov, Sh. Rahmatullayev, A. Hojiyev, H. Ne'matov, R. Rasulov, N. Mamatov, D. Abdullayeva, I. Mamasoliyev, Y. Odilov, F. Jumayeva, I. Ermatov. The first scientific views on the phenomenon of antonymy in Uzbek linguistics were reflected in the articles of S. Mutallibov, S. Usmonov. Later, this issue was studied at the level of candidate dissertations by R. Shukurov and B. Isabekov.

Keywords: Lexicon, lexeme, antonym, semi-antonyms, hyperonym, hyponym, eqonym, eqonymy, etc.

Qarama-qarshilik kategoriyasi borliqning asosiy mezonlaridan biri sifatida doimo olimlar diqqat markazidagi hodisalar qatorida e'tirof etib kelingan. Uning tildagi ifodasi, asosan, antonimiya nomi ostida talqin qilinib, ma'lum me'yorlarga bo'ysundirilgan.

Professor Rohatoy Safarova o'zining "Leksik-semantik munosabatning turlari" nomli ilmiy-tadqiqot ishida gipo-giperonimik qatorlarda antonimiya masalasiga to'xtalib shunday yozadi: "O'zbek tilidagi so'zlar orasidagi antonimik munosabatlarni o'rganishga bag'ishlangan ba'zi ishlarda *erkak, ayol, chol, kampir, qiz, yigit* kabi so'zlar *yarim antonimlar* sifatida ko'rsatilgan, vaholangki, bu so'zlar o'zaro qarama-qarshi (antonimik) ma'nolarga ega bo'lgan giponimdir. Chunonchi, *odam* giperonimi *erkak, ayol, chol, kampir* va hokazo so'zlar bilan bir qatorni hosil qiladi: *yoshlar, yigit, qiz* va hokazo.

Bunday har xillik gipo-giperonimik leksik paradigmalarni hosil qiluvchi so'zlar tizimi orasidagi antonimik ma'no munosabatlarining bugungi kunga qadar o'rganilmaganligidan dalolat beradi" (Safarova, 1996, 43-b.). Olima to'g'ri va o'rinli ta'kidlagani kabi bu masalalar o'zbek tilshunosligida ilmiy tadqiq etilmagan.

Jins-tur nomini ifodalash jarayonida esa mazkur jinsning biror-bir turini inkor qilish kuzatilmaydi. Chunonchi: *Bu qayrag'och emas, qayin*. Bu kontekstda *qayin* va *qayrag'och* so'zlari bir-birini inkor qilmaydi, bir-birining qarama-qarshi belgisini atamaydi, balki ularning har biri shu turning belgisini tasdiqlaydi, lekin ba'zan nutqiy vaziyat bilan bog'liq holda kontekst doirasida giponimlar o'zaro antonimik, ma'no bo'yoqlari asosida ham bog'lanadi. Bunday hollarda giponimlar kontekst doirasidagi o'zaro antonimlar sifatida namoyon bo'ladi. *Tolday qaltiramang, chinorday mahkam turing, Yo'q u qo'y emas, qo'chqor* giponimining sinonimiya va antonimiya bilan o'zaro aloqasi ustida to'xtalar ekanmiz, shuni alohida ta'kidlash kerakki, gipo-giperonimik qatordagi har bir giponim va hatto giperonim ham lug'aviy birliklarning o'z ma'nosi bilan bog'liq holda ham, ko'chma ma'nosi bilan bog'liq tarzda ham

o‘zining antonimiga va sinonimiga egadir (Safarova, 1996, 25-26-b.). *Tol* va *chinor daraxt* giperonimining giponimlaridir. *Tol-chinor* zid ma’noli emas, shu holda ular antonimlik hosil qila olmaydi. Lekin yuqorida keltirilgan misolda kontekstual antonimlik hosil qildan.

Giponimiya – til leksik qatlamini tizim sifatida tashkil etishning imkoniyatlaridan biri sifatida partonimiya, funksonimiya, graduonimiya hamda iyerarxonimiya bilan qo‘shilib ketadi, lekin ulardan birortasiga o‘tmaydi va birortasini qoplamaydi. Xuddi shu fikrni ekvonimiya hodisasiga nisbatan ham aytish mumkin bo‘ladi. Ekvonimiya ham til leksik qatlamini tizim sifatida tashkil etishning imkoniyatlaridan biri sifatida qarash mumkin.

Giponimik qatorlar tilning leksik tizimida har doim ochiq lug‘aviy mikrotizimlarni hosil qiladi hamda maxsus markaziy dominanta so‘z ostida lug‘aviy birliklarning leksik-semantik (paradigmatik) guruhiga birlashadi. Bu o‘rinda jins nomini ifodalovchi so‘z giperonim lug‘aviy birliklarning ushbu leksik-semantik guruhi uchun dominanta sifatida namoyon bo‘ladi (Safarova, 1996, 26-b.). Umumlshtiruvchi semaga ega bo‘lgan dominant maqomidagi giperonim farqlovchi semaga ega bo‘lgan giponimlar bilan paradigma hosil qiladi. Ushbu paradigmadagi farqlovch semaga ega bo‘lgan giponimlar o‘zaro, faqat bir semaga ko‘ra zidlanadi hamda ekvonimlikka yo‘l ochadi va ekvonimlar hosil qiladi.

O‘zbek tilshunosligida ilk bora qarama-qarshilik hodisasi antonimiya doirasi bilangina chegaralanmasdan, keng planda o‘rganilmoqda va mazkur hodisani o‘zida to‘liq ifodalay oladigan ekvonimiya termini iste’molga kiritish maqsadga muvofiq deb bilamiz.

Til borliqning yashash shakllaridan biri sifatida o‘zida borliq hodisalarini aks ettirar ekan, qarama-qarshilik kategoriyasining tildagi o‘rni ham ahamiyatli. U til birliklarining muhim semantik-sistemaviy munosabatini ta’minlaydi. Mazkur kategorianing lingvistik ifodalovchisi sifatida, asosan, antonimiya hodisasi e’tirof etiladi (Abdullayeva, 2010, 6-7-b.).

Lingvistik qarama-qarshilikning faqat antonimiya mezonlari asosida belgilanishi hodisa mohiyatini to‘liq ochishga yordam bermaydi. Leksik birliklardagi semantik qarama-qarshilik munosabatini antonimiya doirasidagina emas, balki undan tashqarida tekshirish maqsadga muvofiqdir. Ana shunday doiradagi hodisani biz ekvonimiya (yunoncha *ekvo* – “teng”, onyma – “nom”) termini ostida o‘rganishni lozim topdik.

Leksik birliklarning semantik tarkibida faqat va faqat bir semaning qarama-qarshilikka (antonimik munosabatga), qolgan semalarning tenglik (ekvonimik munosabatga) asos bo‘la oladigan semalarning mavjud bo‘lishi ekvonimiya hodisasining mohiyatini belgilaydi.

Antonim va ekvonimlarning mushtarak va farqli tomonlarini quydagilarda kuzatish mumkin:

har ikkisida semantik qarama-qarshilikni muayyan semalar ta'minlaydi;

antonimik munosabatdagi leksik birliklar semantik tarkibida qarama-qarshilikni yuzaga keltirgan semalardan tashqari barcha semalar integral xarakterda bo'ladi, ekvonimiyada esa, qarama-qarshilikni ta'minlaydigan faqat va faqat bir sema mavjud bo'ladi;

antonimik birliklar ikki qutbli bo'ladi, ekvonimik birliklar esa uch qutbli bo'ladi.

Bu bilan ular o'rtasidagi farqlar tugamaydi, bu masala alohida tadqiqotlar mavzusi hisoblanadi.

Antonim leksik birliklarning semantik tarkibida tenglik munosabatiga asos bo'la oladigan semalarning mavjud bo'lishi ekvonimiya hodisasini belgilaydi.

Psixolingvistik jihatdan ekvonimik birliklar anglatadigan tushunchalar tafakkurimizda assotsiativ holatda gavdalanadi. Bunda inson tafakkuridagi assotsiativ olamni tilda antonimiyaga nisbatan ekvonimiya hodisasi to'laroq aks ettiradi. Chunki bir ekvonimik yadro asosida munosabat hosil qiladigan juftliklar tafakkurimizda alohida-alohida emas, balki bir umumiy qarama-qarshilik yadrosi atrofida uyushma hosil qiladi.

Ekvonimiyaning til sistemasidagi boshqa leksik-semantik munosabatlar, xususan, giponimiya va giperonimiya asosidagi tadqiqi hodisa mohiyatini yanada to'liq aks ettiradi.

Har bir ekvonimik munosabatdagi so'z o'zining teng semali juftining sinonimik qatordagi barcha leksemalar bilan ham ekvonimik munosabatdadir.

Lingvistik kategoriya sifatida ekvonimiya leksik-semantik aloqalarning bir ko'rinishi bo'lgan ekvonimiya va giponimiya hodisalarining to'qnashuvi asosida reallashadi. Biroq ekvonimiya leksik sathda o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan alohida hodisa, uning mavjudligi faqat gipero-giponimiya asosida belgilanmaydi.

Til sistemasida nafaqat ekvonimik juftliklar, balki muayyan ekvonimik yadro asosida uyushadigan ekvonimik guruhlar mavjud. Bu holat ekvonimlarning tildagi o'rnini yanada oydinlashtiradi. Masalan: oila (er-xotin), oila (aka-uka), oila (bobo-buvi), oila (kelin-kuyov), oila (opa-singil).

Paradigmatik (o'xshashlik) munosabatlar til ziddiyatlarida (oppozitsiyalarida) voqelashadi, "ko'rinadi"... Bu ziddiyatlarning eng asosiylari to'rt xildir. Ular quyidagilar:

- 1) teng qiymatli (ekvipolent) ziddiyatlar;
- 2) mutanosib (proporsional) ziddiyatlar;
- 3) darajali (gradual) ziddiyatlar;
- 4) noto'liq (privativ) ziddiyatlar (He'matov, Rasulov, 1995, 16-b.).

Ekvipolent (teng qiymatli) ziddiyatda ikki a'zo qarshilantirib, har bir a'zo o'ziga xos, ikkisiga xos bo'lmagan belgiga ega bo'ladi.

Teng qiymatli (*ekvipolent*) ziddiyat deganda ikki til birligining o'ziga xos belgi-xususiyatlari asosida o'zaro qarama-qarshi qo'yilishi, ziddiyat tushuniladi. Masalan: [ona]:[bola]. Bu ziddiyatda bir til birligi voyaga yetgan, nisbatan katta yoshdagi shaxsni, ikkinchisi esa voyaga yetmagan, nisbatan kichik yoshdagi shaxsni ifoda etadi. Yana qiyoslang: [qo'y]:[qo'chqor]. Bu ziddiyatdagi til birliklaridan biri "urg'ochilik", ikkinchisi esa "erkaklik" ma'nosiga ega. Shunga ko'ra ushbu til birliklari o'zaro zid munosabatdadir. [kitob]:[daftar]; [qo'y]:[echki]; [ot]:[eshak]; [oq]:[qora]; [qizil]:[sariq]; [men]:[sen] kabi til birliklari orasidagi ziddiyatlar ham teng qiymatli ziddiyatlardir (He'matov, Rasulov, 1995, 14-b.).

Leksik paradigmalarda leksemalar ma'nosidagi farq (ziddiyat)lar asosida (umumiy belgisiz) tashkil topmaydi. ... leksik paradigmaning o'zaro farqli va umumiy belgiga ega bo'lgan leksemalardan tashkil topishi asosida yondashilsa, keltirilgan "o'zaro zid" butunlikning o'zi leksik paradigma bo'la olmasligi ma'lum bo'ladi. Ziddiyatning bu turi uchun keltirilgan [ona]:[bola]; [qo'y]:[qo'chqor] va [qo'y]:[echki]; [ot]:[eshak]; [oq]:[qora]; [qizil]:[sariq] tipidagi butunliklar bir xil mohiyatga ega emas. Masalan, [ona]:[bola] butunligini olaylik. Birinchidan, bu ikki leksema o'zaro farqli belgiga egaligi aniq. Bunda birlashtiruvchi belgi zidlik belgisi bo'lishi haqida gapirish qiyin. Ikkinchidan, bu farq zidlik belgisi sifatida qabul qilingan taqdirda ham, shu belgi asosida paradigma tuzilishi haqida gapirish mumkin bo'lmaydi (Hojiyev, 2010, 114-b.).

Ekvonimlar hosil bo'lishida semalarni umumlashtiruvchi (giperonim) va farqlovchi (giponim) leksemalar bo'lishi va ular paradigma hosil qilishini taqozo etadi. Ana shu jihatlari bilan ham ekvonimlar antonimlardan farq qiladi. Antonimlarni shakllantirishda umumlashtiruvchi leksema bo'lishi shart emas. Antonimlar ikki qutbli zidlanishga ega bo'lsa, ekvonimlar esa uch qutbli zidlanishga ega bo'ladi. *Ota* va *ona* leksemalari *oila* giperonimining giponimlari va ekvonimlari hisoblanadi. Ekvonimlarda uchinchi qutb (umumlashtiruvchi) bo'ladi va voqelikda ifodalanmaydi. Biz buni *oila* giperonimida ko'rdik. *Oila* bo'lmas ekan *ota-ona* haqida gap-so'z bo'lishi mumkin emas. *Ota* ushbu oilaning "erkak" jinsiga mansub a'zosi, *ona* esa oilaning "ayol" jinsiga mansub a'zosi hisoblanadi. *Ota* va *ona* ekvonimlarini birgina sema ya'ni jinsga oidligi farqlamoqda, zidlantirmoqda. *Ota-ona*, *chol-kampir*, *aka-uka*, *opa-singil* kabilarda ham shunday hodisa kuzatiladi, ya'ni bu juftliklarda jins yoshga ko'ra farqlanish mavjud, bu farq birining ikkinchisiga nisbatan "teskari" belgiga egaligida o'z ifodasini topadi. Lekin ular (*oila*) paradigmaning a'zosi sifatida o'zaro farqlovchi belgi (shunday maqomdagi belgi) sifatida bo'ladi va umumiy belgisi bilan bir paradigmani hosil qiladi. Yuqorida

keltirilgan misollardagi *ota-ona*, *chol-kampir*, *aka-uka*, *opa-singil* leksemalari *oila* giperonimining giponimlari va ekvonimlari hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, leksik paradigmalar umumiy (birlashtiruvchi) va farqli semalar asosida yuzaga keladi. Bunda quyidagi holatlar kuzatiladi:

1) paradigmalar birlashtiruvchi va farqli leksemalardan tuziladi. Birlashtiruvchi semani bildiruvchi soʻz paradigmada qatnashmaydi, bu sema paradigma aʼzolarining har birida mavjud boʻladi va paradigma aʼzolaridan har birining izohida namoyon boʻladi. Masalan, *sada*, *archa*, *chinor*, *terak*, *tol* leksemalaridan tashkil topgan paradigmanning birlashtiruvchi semasi *daraxt* leksemasida namoyon boʻladi;

2) paradigmalar birlashtiruvchi va oʻzaro farqli semaga ega boʻlgan leksemalardan tuziladi. Masalan, *qoʻy*, *qoʻchqor*, *sovliq* leksemalaridan tuzilgan paradigma *qoʻy* birlashtiruvchi semaga, *qoʻchqor* va *sovliq* farqli semaga ega;

3) paradigma oʻzaro farqli belgiga ega boʻlgan ikki leksemadan tuziladi: *aka* va *uka*, *amma* va *xola*, *kelin* va *kuyov* leksemalaridan tuzilgan paradigmalar shular jumlasiga kiradi. Bulardagi munosabat (nisbatlanish) boshqa soʻz yoki soʻzlar orqali ifodalanadi. Masalan: *togʻa* – onaning aka-ukasi (farzandga nisbatan); *jiyan* – opa yoki singilning farzandi (akaga nisbatan). Xuddi shu xususiyati bilan ular boshqa tipdagi leksik-semantik guruhlardan, jumladan, antonim juftliklardan farqlanadi (Hojiyev, 121-122-b.).

Leksik birliklar oʻrtasidagi semantik qarama-qarshilikning yuzaga kelishida ularning sememalari emas, muayyan semalari asos boʻladi va bunday semalar qarama-qarshiligi – antisemiya nafaqat bir turkum, balki turli turkumdagi soʻzlar munosabatida ham mavjud. Shunga koʻra, leksik birliklardagi semantik qarama-qarshilikni faqat antonimiya doirasidagina emas, balki undan tashqarida ham tekshirish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa oʻrnida, ekvonimiya giponimiya va giperonimiya hodisalari bilan uzviy bogʻliq, ekvonimiyani ushbu hodisalar bilan aloqasi asosida tadqiq etish uning til sistemasidagi imkoniyatlarini yanada oydinlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Абдуллаева Д. (2010). *Ўзбек тилида антисемия*.

Вараксин Л.А. (1968). *Однокоренные префиксальные глаголы-антонимы в современном русском языке*. Куйбышев.

Эрматов И. (2022). *Терминология тизимида гиперо-гипонимик ва эквонимик муносабатлар (тилимунослик терминлари мисолида)*.

Ҳожиёв А. (2010). *Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари*. Фан.

Исабеков Б. (1973). *Ҳозирги ўзбек тилида лексик антонимия*.

Жумаева Ф.У. (2019). *Полисемем лексемалар доирасидаги синоним ва антоним семалар тадқиқи*. Qaqpus media.

Львов М.Р. (199984). *Словарь антонимов русского языка*. Русский язык.

- Муталлибов С. (1955). *Антоним сўзлар* // Совет мактаби. - №4.
- Мамасолиев И.У. (2011). *Антонимические группировки в русском и узбекском языках*.
- Новиков Л.А. (1973). *Антонимия в русском языке (семантический анализ противоположности в лексике)*. Вышш. Шк.
- Неъматов Х., Расулов Р. (1995). *Ўзбек тили систем лексикологияси асослари*. Ўқитувчи.
- Одилов Ё. (2013). *Энантисемиа ҳодисаси ва унинг лингвистик тадқиқи*. // Тил ва адабиёт таълими.
- Одилов Ё.Р. (2016). *Ўзбек тилида энантисемиа*.
- Раҳматуллаев Ш., Маматов Н., Шукуров Р. (1980). *Ўзбек тили антонимларининг изоҳли лугати*. Ўқитувчи.
- Сафарова Р. (1996). *Лексик-семантик муносабатнинг турлари*. Ўқитувчи.
- Усмонов С. (1958). *Антонимлар*. // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари.
- Шукуров Р. (1973). *Ўзбек тили антонимларининг лексик-семантик табиати*.